

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining yig'ilish**

OCHIQDARS BAYONNOMASI № 2

20.10. 2025 yil

Sariosiyo t.

Yig'ilish raisi: A.Xamidov-Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini
mudiri
Kotib: N.Ibragimova
Qatnashdilar: Kafedra professor-o'qituvchilari: 20 nafar

KUN TARTIBI:

Ochiq dars muhokamasi.

Mavzu: "O'zbek tilida bosh harflar imlosi"

(Sh.Baxromova) Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini o'qituvchisi).

Eshitildi:

Yig'ilishni Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri A.Xamidov ochib berdi, bugungi kafedra yig'ilishda o'qituvchi Sh.Baxromovani Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 13-BT guruhida Boshlang'ich ta'limda imloviy va punktuatsion savodxonlik fanidan o'tkazilgan "O'zbek tilida bosh harflar imlosi" mavzusidagi 2 soatlik ochiq darsining tahlili yuzasidan, O'qituvchini darsga puxta tayyorgarligi ko'rinib turibdi. Pedagogik mahorati talabga javob beradi, nutq madaniyati yaxshi, dars reglamentiga rioya qilindi. AKT dan unumli foydalandi, o'tilgan darsni namunali deb baholandi.





Ochiq dars muhokamasi yuzasidan, Registrator ofis ma'lumotlar bazasi bo'lim boshlig'i S.Abdurahimov va pedagogika fakulteti zamdekani Sh.Bolliyev so'zga chiqib, Sh.Baxromova tomonidan o'tilgan dars qiziqarli va mazmunli o'tdi. O'qituvchining bilim darajasi yetarli ekanligi sezilib turibdi. Darsda o'zini tutishi, talabalar bilan savol-javob, "Charxpalak metodi" "Aqliy hujum metod" laridan foydalanilgan holda darsga juda yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan. O'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi deb o'ylayman va namunali deb baholayman.



Ularga bu metodlar juda qiziqarli bo'ldi. O'qituvchi yangi mavzuni talabalarga yaxshi yetkazib bera oldi.



Dars jarayonida AKT dan foydalanib, talabalarni darsga qiziqтира oldi. Demak, o'qituvchi darsga har tomonlama yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, shuning uchun dars ijobiy deb baholandi. Dars davomida talabalar yo'l qo'ygan kamchiliklarni e'tiborga olib, kelgusi mashg'ulotlarda yo'l qo'ymaslikka harakat qilishi aytib o'tildi.

Yig'ilish so'ngida o'qituvchi Sh.Baxromovaga so'z berildi. Sh.Baxromova amaliy mashg'ulot darsida ishtirok etgan professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi va muhokama jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagogik faoliyatida e'tiborga olishini ta'kidladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. O'qituvchi Sh.Baxromovaning Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 13-BT guruhida Boshlang'ich ta'limda imloviy va punktuatsion savodxonlik fanidan o'tkazilgan "O'zbek tilida bosh harflar imlosi" mavzusidagi ochiq darsi namunali deb baholansin.

Yig'ilish raisi:

A.Xamidov

Kotiba:

N.Ibragimova